10-noyabr — Butunjahon ilm-fan kuni!

Har yili 10-noyabr kuni ilm-fanning jamiyatdagi muhim o‘rni va ilm-fanga oid dolzarb masalalarni muhokama qilishda keng jamoatchilik ishtirok etishi zarurligiga qaratilgan “Tinchlik va taraqqiyot yo‘lida butunjahon ilm-fan kuni” nishonlanadi.

1999-yilda Budapeshtda bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilari Butunjahon ilm-fan kuni bayramini joriy qilish haqidagi taklifni YUNESKOga yo‘llaydi. YUNESKO 2001-yilda ushbu taklifni ma’qulladi va 10-noyabr sanasini Butunjahon ilm-fan kuni deb rasman tasdiqladi hamda va 2002-yildan beri nishonlanadi. Bu bayramning to‘liq nomi “Tinchlik va taraqqiyot yo‘lida butunjahon ilm-fan kuni” (World Science Day for Peace and Development) deb qayd etildi.

Bayramni joriy etishdan asosiy maqsad jamiyat taraqqiyoti va tinchligi yo‘lida ilm-fan ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, ilm-fan yo‘liga to‘g‘anoq bo‘layotgan muammolarga jamiyat e’tiborini jalb etish va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashdir.